



ADABIYOT FANINI O'QITISHDA XALQ OG'ZAKI IJODINING O'RNI

Eshimova Zarnigor

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'zbek tili va
adabiyoti fakulteti 2-22-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada adabiyot fanini o'qitishda xalq og'zaki ijodining o'rni, adabiyot va xalq og'zaki ijodining chambarchas bog'liqligi haqida so'z boradi.

Kalit so'z: Xalq og'zaki jodi, adabiyot, folklor, doston, maqol, matal, topishmoq, lirika.

Bizga tarixdan ma'lumki, adabiyot, mana, necha ming yillardan beri insoniyatning boy an'anasi va hayoti tarzi, o'tmishini hikoya qilishdan tashqari ong-u shuurini, aql – zakovatini charxlaydigan, insonlarga to'g'ri yo'l ko'rsatadigan san'at turi hisoblanib kelgan. Uning bu darajada sayqallanib, rivoj topishi uchun, albatta, folklor, ya'ni xalq og'zaki ijodining o'rni beqiyosdir.

Zero, folklor yozma adabiyotning bunyodga kelishi va rivojlanishiga genetik manba bo'lib xizmat qiladi. Badiiy asar yozish sohasidagi ilk urinishlar folklor tajribasiga suyanish va uni ijodiy o'zlashtirish negizida kechganligi, qolaversa, bunda folklorga xos syujetlar, obrazlar, motivlar, uslub va tasviriy vositalardan ijodiy foydalanganligi hech kimda shubha uyg'otmaydi. Shuning uchun ham xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot bir – biri bilan chambarchas bog'liqdir. Yozma adabiyotdagi har bir asarning negizi va asli xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi.



Chindan ham “Shohnoma” xalqdan olib yozilganligi tufayli Abulqosim Firdavsiyga mangulik baxsh etdi. Ulug‘ Alisher Navoiy ham xalqning serjilo og‘zaki adabiyotidan ta’lim olib jahonshumul shuhrat qozongan “Xamsa”, “Xazoyin ul - maoniy” singari o‘lmas asarlar yaratdi. Poshshoxo‘ja “Gulzor” va “Miftohul - adl” asarini bevosita folklor ta’sirida yozgani ma’lum, Muhammadsharif Gulxaniyning “Zarbulmasal”i folklordan ijodiy ilhomlanishning ko‘rkam namunasi sanaladi.¹

Bu hodisa faqat bizning adabiyotimizda emas, balki yer yuzidagi barcha xalqlar adabiyotida uchraydi. Shundan kelib chiqqan holda, biz, adabiyot hamda folklorni bir – biridan ajrata olmaymiz.

Maqolamizning asosiy yuragi hisoblangan adabiyot fanini o‘qitishda xalq og‘zaki ijodining o‘rniga to‘xtaladigan bo‘lsak, uning mavqeyi beqiyosdir.

1.O. Safarov. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi: pedagogika oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. 20-bet

Demak, yozma adabiyot paydo bo‘lishining ildizi ham xalq og‘zaki ijodidir.

Nima uchun xalq og‘zaki ijodi bunchalik katta boy ma’daniy merosga ega? Sababi unda butun xalqning orzu – umidi, armonlari, yuragi, qisqa qilib aytganda butun borligi jamlangan. Qachon bir yozilgan asar juda ko‘p kitobxonni jalb etadi, qachonki unda kitobxon, o‘z taqdiri, umri, orzu – istaklari va hayollarini ko‘ra olsagina. Xalq og‘zaki ijodida aynan mana shu narsa bor. Xalq o‘z dardini, orzulari, armonlarini qo‘shiq qiladi, rivoyat qiladi, ertak, doston va laparlar qilib kuylaydi. Chunki u xalqning ijodi, xalqning xohishi, xalqning istagi. Folklor og‘izdan og‘izga o‘tib yashasa, badiiy adabiyot yozuv vositasida yashaydi. Folklor asari og‘zaki aytiladi, ijro etiladi, kuylanadi. Badiiy adabiyot esa faqat o‘qiladi, ijrosiga xos xususiyatlar esa folklordan ijodiy o‘zlashtirilgan.

Og‘zaki va yozma adabiyotlarning o‘zaro ta’siri va hamkorligi barcha xalqlarning adabiyotlariga xos bo‘lib, o‘sha adabiyotlarning shakllanishi va yuksalishini ta’minlashda,



ularda xalqchil realistik tasvirning tantana qilishida, yangi obrazlar, yangi mavzular, yangi motivlar, yangi shakllar, xalqona ruhni ta'minlovchi obrazlilik va ifodaviy vositalar hisobiga to'lisha borishiga, shuningdek, folklor va yozma adabiyotga xos janrlarning o'zaro bir- biri bilan aralashuvi asosida badiiy ertak va uning xilma xil ichki ko'rinishlari (ertak -drama, ertak-qissa, ertak- roman, ertak -opera)ning yuzaga kelishida, barmoq she'r tizimining yozma adabiyotga o'tib barqarorlashuvida muhim rol o'ynab kelmoqda.

Adabiyotni o'qitishda xalq og'zaki ijodining o'rniga kelsak, o'qirman uchun eng yaxshi tanlov sodda, xalqona va tushunarli asar. Asar qachon tushunarli bo'ladi, qachonki unda xalq tomonidan yaratilgan qochirmalar, rivoyatlar, ertaklar va maqol, matallardan iborat bo'lgandagina. O'qirmanning yoshi nechada bo'lishidan qat'iy nazar, asarda unga tanish hikoyalar, matallar, qo'shiqlar kelsa, u yanada ishtiyoq bilan mutolaada davom etadi.

Badiiy asarlar ham xalqning mehrini qozonishi va rivojlanishi uchun, albatta, folklor namunalarini o'z ichiga olishi kerak.

Xalq og'zaki ijodi juda keng qamrovli turlarga bo'linib, nasr xususiyatidan doston, drama, bolalar folklori, lirika xususiyatidan esa marosim folkloriga bo'lishini barchamiz yaxshi bilamiz. Agar biz adabiyotni o'qitishda xalq og'zaki ijodining o'rnini birma bir ko'rib chiqadigan bo'lsak, bu ancha vaqt va mehnat talab qiladigan ish hisoblanadi. Shunday ekan, folklor turlarini jamlagan holda maqolamizda eng asosiy dalillarni keltirib o'tamiz.

Xalq og'zaki ijodining nasr yo'nalishi eng qadimgi ijod namunalari hisoblanib, hali adabiyot degan soha shakllanmasdan oldin paydo bo'lib xalq orasida mashhur bo'lgan. Bu mashhurlik barobarida ular og'izdan og'izga, avloddan avlodga o'tib kelavergan. Bizgacha doston bo'lib yetib kelgunga qadar u mif, afsona, rivoyat, ertak kabi shakllarda turlanib, qo'shimchalar qo'shib dostonga aylanib borgan.

Xalq dostonlari adabiyotimizda juda katta o'ringa ega bo'lib, kitobxonni o'zining qiziqarli va improvizatsiyaga boy voqealar ketma ketligi bilan, hamda haddan ortiq ishonib



bo‘lmas mubolag‘a va g‘ululari bilan, baxshilarning aytuvi, o‘ynoqi, qochirmali gaplari bilan diqqatga sazovordir.

Xalq dostonlari adabiyotimizda eng ko‘p kitobxonni jalb etadigan folklor namunasi hisoblanadi. Jumladan dostonlar nuqtayi nazaridan maktab darsliklarida 7- sinfdan boshlab o‘qitiladi. O‘quvchilar ayni shu yoshida qiziqarli voqealarga boy va oxiri ezgulik bilan tugaydigan dostonlarni sevib o‘qishni boshlashadi. Aynan mana shu sinfda “Ravshan” dostoni beriladi. Doston o‘quvchilarda xalq og‘zaki ijodining bu namunasini iliq kutib olinganiligining debochasi hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda u 8- sinf adabiyot darsligida berilgan “Kuntug‘mish” dostoni ham o‘quvchilarda juda katta taassurot qoldiradi. “Ravshan” dostonini o‘qib, ko‘nikma hosil qilgan, Ravshanning sarguzashtlari bilan 1 yoshga ulg‘aygan o‘quvchi Kuntug‘mish va uning sinovli hayoti va tolesiga ergashadi. 9-sinfda “Alpomish” dostoni orqali esa o‘quvchilar qahramonlik, or-nomus, yigit kishining bir so‘zli bo‘lishi, ahdga vafo, qizlar esa ibo-hayo, matonat, sabr, baxt uchun intilish kabi yaxshi fazilatlarni o‘zlashtiradi. 10-11-sinfda esa “Malikai ayyor” va “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlar aynan ulg‘ayib balog‘at yoshiga qadam qo‘yayotgan yigit va qizlarni barkamol, halol, mard, tanti, bir so‘zli, ibo-hayoli, oilaparvar bo‘lib voyaga yetishiga, tarbiya topishi uchun yordamchi hisoblanadi. Bu dostonlar adabiyotimizning ajralmas qismi hisoblanib, kitobxonda qiziqish, nim tabassum uyg‘otadi. Ular xalqimizning asriy orzu – armonlarini, xohish – istaklarini, yurak kechinmalarini ifodalab, haqiqiy o‘zbeklarning qanday mard, tanti, jasur, dangal bo‘lganligini ochib beradi. Xalq og‘zaki ijodining bu namunasi o‘zbek xalqining qadimiy urf – odatlari, an‘analari, turmush tarzi, muhitidan xabar beradi.

Aynan folklor dostonlari adabiyotimizda yo‘qolib borayotgan qadriyatlarimizni tiklashga, an‘analarimizni davom ettirishga yordam beradi. Bundan tashqari turkiy tilimizning qanchalar so‘zga boyligi, uning serjilo tovlanishlari baxshilarimiz tomonidan kuylangan dostonlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Agar adabiyotimizda xalq og‘zaki ijodimizdagi dostonlar bo‘lamasa adabiyot sezilarli darajada zerikarli, bir maromda bo‘lib



qoladi deb o'ylayman. Sababi folklorda past - balandlik, hikoyalar davomida xalq qo'shiqlari, she'rlari, laparlari, matallar, maqollar aralashmasi bir doston tarkibida navbatma navbat keladi. Aytingchi, bunday har tomonlama to'kis dostonni o'qishdan kim ham bosh tortadi? Albatta, hech kim!

Biz yuqorida qayd etgan buyuk allomalarimiz ham xalq og'zaki ijodi namunalari orqali, ularni boyitgan holda bizgacha juda katta boy meros qoldirishgan. Bu meros mana necha ming yillardan beri o'zining qadimiyligini yo'qotmay kelmoqda. Agar xalq og'zaki ijodi bo'lmaganda bunday noyob durdonalar qayerda edi deysiz? Ayni shu chog'da Cho'lponning "Xalq" she'ri yodimizga tushadi.

Xalq dengizdir, xalq to'liqindir, xalq kuchdir,

Xalq isyondir, xalq olovdir, xalq o'chdir...

Xuddi shunday kuch, xuddi shunday donolikni xalq o'z folkloriga joylagan. Unda ko'tarinkilik, ruh, yangilik, yengillik, shu bilan bir qatorda soddalik ham ufurib turadi.

Qaysi bir xalqning adabiyotiga nazar solsangiz, unda xalq og'zaki ijodidan bir talay namunalar ko'rasiz. Har bir xalqning, millatning o'zligi uning adabiyotida namoyon bo'ladi. Sababi millat adabiyoti tarkibidagi har bir satr, o'sha xalq haqidagi barcha haqiqatlarni ochib beradi. Mana sizga xalq og'zaki ijodining adabiyotimizda tutgan o'rni.

Yoki shu xalq og'zaki ijodining nasriy turiga kiradigan mif, afsona, rivoyat, matal va maqollarning o'zi ham o'zbek adabiyotida katta o'rin egallaydi. Sababi ularning tarkibida xalq donoligi va donishmandligi aks etadi. O'ziningiz o'ylab ko'ring maqollar yaratilgan davrdan boshlab toki hozirgacha mana bir necha ming yillardan beri ham o'z kuchida turibdi. Buning sababi nima? Nega shuncha vaqt, davr va zamonlar o'tdi, lekin u o'z o'rnini yo'qotgan emas? Texnika, hayot, turmush, barcha barchasi yangilandi, lekin hamon maqollar va matallar o'z kuchida turibdi. Buning sababi matal hamda maqollarning uzoq yillar



davomida bobo – buvilarimizning ko‘rgan – kechirganlari, tajribalari asosida yuzaga kelgan ibratli xulosalardir.

Matallar ham xuddi shunday yaratilgan bo‘lib, kitobxonlarga ularning beradigan eng katta ko‘magi, insonlarning dunyoqarashini shakllantirish, to‘g‘ri va ongli o‘qish malakalarini takomillashtirish, maqol va matallarda aks etadigan so‘zning yaxlit ma‘nosini to‘g‘ri idrok etishga erishishdir. Aynan shu vazifalar orqali maqollar adabiyotda yetakchi o‘ringa ega. Sababi xalq og‘zaki ijodining bu turi orqali insonning fikri jamlanadi, maqolni idrok etishni boshlaydi, tahlilni kuchaytiradi, sinchikovligi oshadi. Bu esa yosh adabiyot ixlosmandlari bo‘lgan o‘quvchilar uchun juda foydalidir. “Kosa tagida nim kosa”, - deganlaridek, maqol ma‘lum bir matnni bir pasda, tez va tushunarli, aniq, lo‘nda qilib tasvirlab beradi. Shuning uchun ham maqolda mazmun aniq, ifoda tugal, xulosa lo‘nda bo‘ladi deyiladi. Siz hech e‘tibor berganmisiz, maqol qo‘shib gapiradigan insonlar, hayotda o‘ta tartibli, kamgap va ma‘suliyatli bo‘lishadi. Birgina shu kichik maqol insonni shunchalik tarbiyalaydiki, Sharq adabiyoti va mumtoz adabiyotimizni maqollarsiz tasavvur etolmaymiz. Aniqsa, donishmandlik o‘g‘itlari maqol va matallar, nasihatlar, pandnomalardan iborat bo‘ladi. Aynan nasihat va pandnomalarning kelib chiqishi esa xalq og‘zaki ijodi tarkibidagi maqol va matallarga borib taqaladi.

Adabiyotning asosiy quroli so‘z ekan, demak bu orqali xalq og‘zaki ijodi ham yashayveradi. Sababi 10 ta gapni bitta qilib maqol qila olgan xalqimizning aql – idroki tahsinga sazovordir.

Folklorning yana bir muhim turlaridan biri hisoblangan va bolalarga ham kattalarga ham birdek maroqli bo‘lgan turi bu topishmoqlardir.

Topishmoqlar adabiyot va san‘at taraqqiyotiga barakali ta’sir etdi. Ular adabiyotimiz tarixida chiston, muammo, muvashshax, ta’rix kabi lirik janrlarning paydo bo‘lishi va rivojiga katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Aynan maqol va topishmoqlar maktab darsligining 5-



sinfida o'rganiladi. Ushbu mavzular bolalar uchun eng qiziqarli mavzulardan biri hisoblanadi. Topishmoqlar bolalar adabiyotida qo'llaniladigan eng muhim janr hisoblanadi. Sababi u o'quvchilar ongini o'stirishga, mustahkamlashga, topqirlikka va zukkolikka undaydi.

Mana shu folklorlar namunalari barchasi birlashib bolalar adabiyotining paydo bo'lishiga asos bo'ldi.

Xalq og'zaki ijodining yana bir turi hisoblangan lirika ham adabiyotning ajralmas qismi hisoblanadi. Sababi lirikada o'ynoqilik, baxt, hayot, motivatsiya, ezgulik, hayotbaxsh onlar barchasi mujassam. Bundan tashqari xalq qayg'u alamlarini, yurak hasratlarini ham qo'shiq orqali chiqaradi. Bu inson tabiatiga xos bo'lgan xususiyatdir. Bilasizmi, adabiyot nimaga hamma uchun birdek sevimli? Sababi juda oddiy. Uni dehqon ham, olim ham, hatto jinoyatchi, yomon xulqli insonlar ham birdek sevib o'qiydi. O'qimaganda ham hech bo'lmaganda qo'shiq, she'r tinglaydi. Inson siqilganda, yuragidagi bor alam va nafratini qo'shiq orqali chiqaradi. Yoki xursand bo'lganda, quvonchidan ichiga sig'may qo'shiq xirgoyi qiladi, musiqa tinglaydi. Masalan, folklordan bir namuna yangraganda, insonlarning chehrasi yorishadi, nogoh o'yinga tushadi. Kim tinglamaydi deysiz, "Boshginam og'ridi", "Yor-yor", "Xo'b hayda", "Mayda-mayda", "Kovushim" va boshqa qo'shiqlar. Ularning safi judayam ko'p. Ularni eshitgan sari zavq olasiz. Ular hech qachon medaga tegmaydi.

Xalq she'riyatining qadimiy, ommaviy, an'anaviy turi sanaluvchi qo'shiqlar insoniyatga doimiy hamroh bo'lib, unga ma'naviy turmushda ko'makchi, xilma-xil marosimlarning betakrorligini ta'minlovchi badiiy qismi vazifasini o'tab kelmoqda.

Aynan mana shu lirika adabiyotimizda barmoq vaznini vujudga keltirgan.

Aynan shu qo'shiqlar asrlar osha hozirgi shiddatli zamonimizda ham o'z qadr-qimmatini yo'qotmay kelmoqda. Aynan shunday va shunga o'xshagan qo'shiqlar adabiyotimizda lirikaning rivoj topib sayqallanib o'sishi uchun turtki bo'lgan.



Lirika bilan bir qatorda adabiyotimizda bolalar folklori ham kichik yoshdagi bolalar adabiyotining ildizlaridan biri hisoblanadi.

Xalq og‘zaki ijodining qaysi turi bo‘lishidan qat’iy nazar, u adabiyotimizning ajralmas bo‘lagidir.

Shu bilan bir barobarda yozma adabiyot ham folklorga katta ta’sir qilgan. Folklorning sayqallanib, har bir davr uchun mos bo‘lishida katta ahamiyatga ega. Biz ularni boshqa maqolalarimizda ko‘rib chiqamiz degan umiddamiz.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi juda ham boy madaniy tarixga ega. Uning har bir turi o‘zbek xalqining asrlar davomida ijodkor farzandlari tomonidan yaratilgan madaniy merosdir. Bu meros o‘zligimiz, tariximiz, borligimiz, butunligimiz, qisqa qilib aytganda ildizimizdir. U adabiyot va uning janrlari shakllanishiga juda katta o‘rin tutgan. Hozirda biz o‘rganayotgan janrlar, jumladan ertak-doston, ertak-opera, ertak-drama, ballada, nasihatlar, pandnomalar, hikmatli so‘zlar, chiston, ta’rix, muvashshax, muammo, barmoq vazni va boshqa ko‘olab yangi janrlarni adabiyotimizga kirib kelishida xalq og‘zaki ijodining o‘rni beqiyosdir. U adabiyotimiz bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, kitobxon, o‘quvchi barcha barchasi uchun bitmas tuganmas xazina hisoblanadi.

Bu xazinaning boyliklaridan bahramand bo‘lish adabiyotshunos, kitobxon, o‘quvchi, qolaversa har bir o‘zbek farzandining vazifasidir. Undan bahramand bo‘lib, estetik zavq va tajriba olish bizning qo‘limizda. Shunday buyuk ajdodlarimiz borligidan va adabiyotimiz borligidan faxrlanamiz, g‘urur iftixorga to‘lamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Jamoa boychechak. Bolalar folklori. Mehnat qo'shiqlari.
2. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T. : Mumtoz so'z 2010
3. Mirzayev T. Xalq baxshilarining epic repertuari. – T. : “Fan”, 1979
4. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Toshkent 2010
5. Maktab o'quvchilari uchun darslik (5-6-7-8-9-10-11-sinflar)